

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI RAQAMLI TEXNOLOGIYALAR VAZIRLIGI,  
ISTE'DODLI YOSHLARNI QO'LLAB-QUVVATLASH "ULUG'BEK JAMG'ARMASI" HAMDA  
TOSHKENTDAGI INHA UNIVERSITETI



Davlat oliy ta'lim muassasalarida tahsil oluvchi, oliy o'quv yurtining 2-bosqichini muvaffaqiyatli yakunlagan (*akademik qarzdorligi mavjud bo'lmagan*), yangilikka intiluvchan va bilimga chanqoq talabalarni "Mirzo Ulug'bek vorislari" tayyorlov o'quv kurslarida o'qish uchun tanlovda ishtirok etishga taklif etadi.



**Maqsad:** "Data Science" kurslarida "Blended learning" texnologiyasi asosida tahsil olish (*asos: O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2023-yil 19-maydagi 206-son qarori*).



## TALABGORLAR UCH BOSQICHLI TANLOVDA ISHTIROK ETADILAR

1

### 1-BOSQICH

**Onlayn tanlov** (*hujjatlarni onlayn tarzda topshirish 2023-yil 15-iyundan 10-iyulgacha, to'liq topshirilgan holatda "IQ test" topshirish*).



2

### 2-BOSQICH

**Imtihon** (*birinchi bosqich natijalari bo'yicha yuqori ko'rsatkichga ega bo'lgan nomzodlar taklif etiladi*).



3

### 3-BOSQICH

**Suhbat** (*mas'ul komissiya a'zolari tomonidan o'tkaziladi. Komissiya a'zolari nomzodlarni tashkilotchilar tomonidan oldindan ishlab chiqilgan savollar asosida suhbatdan o'tkazadi. Suhbat jarayonlari onlayn translyatsiya qilinadi. Ta'lim olish va ilmiy izlanish faoliyatida erishilgan yutuqlar haqida 5 daqiqalik taqdimot*).



"Baholash mezonlari" ilova qilinadi.



Baholash mezonlari asosida eng yuqori ko'rsatkichga ega bo'lgan 10 ta ishtirokchi tanlab olinadi.



## TALABGORLAR IMTIHON TOPSHIRISHI REJALASHTIRILGAN YO'NALISHLAR

1. Axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish (boshlang'ich darajada);
2. Algoritmash va dasturlash asoslari;
3. Mantiqiy savol va masalalar;
4. Matematikadan mantiqiy masalalar;
5. Matematik statistika masalalari;
6. Algebradan misollar yechish;
7. Tenglamalar yechish;
8. Kompleks sonlar va ular ustida amallarni bajara olish.



## BAHOLANADIGAN SHAXSIY-KASBIY XUSUSIYATLAR (suhbat):

- qaror qabul qilishda mustaqillik darajasi;
- mantiqiy fikrlash;
- maqsadga va yangiliklarga intiluvchanlik;
- kasbiy vazifalarni hal qilishda amaliy faoliyat;
- rejalashtirish qobiliyati;
- taqdimot qilish qobiliyati;
- muloqotga kirishuvchanlik qobiliyati;
- mas'uliyat va intizom;
- o'z ustida ishlash va ijodkorlik qobiliyatlari;
- stressga chidamlilik.



## HUJJATLAR (barcha hujjatlar elektron nusxada \*.pdf formatida taqdim etiladi):

1. Shaxsni tasdiqlovchi hujjat nusxasi;
2. Oliy ta'lim muassasasidagi 2 yillik akademik ko'rsatkichlar natijasini tasdiqlovchi hujjat nusxasi;
3. Tanlov yo'nalishidagi ilmiy faoliyat (agar mavjud bo'lsa);
4. Motivatsion xat ("Data Science" nimasi bilan qiziq? "Data Science"ning bugungi kundagi ahamiyati? Istiqboldagi foydali tomonlari? o'zbek va rus tillarida, hajmi 2 betdan kam bo'lmagan, formati A4);
5. Xorijiy tillarni bilish darajasini tasdiqlovchi hujjatlar nusxalari (agar mavjud bo'lsa);
6. Xalqaro IT sertifikat (agar mavjud bo'lsa);
7. Nashr etilgan ilmiy ishlari ro'yxati (nusxalari ilova qilinadi, agar mavjud bo'lsa);
8. Tanlov doirasida tayyorlangan 1 ta maqola, 1 ta taqdimot elektron tarzda taqdim etiladi.



## “BAHOLASH MEZONLARI”

| Nº    | Ko'rsatkichlar                                                                                                                                                     | Ballar     |
|-------|--------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|------------|
| 1     | Taqdim etilgan hujjatlar to'liqligi va rasmiylashtirish sifati                                                                                                     | 0–5        |
| 2     | Nomzodning ta'lim olayotgan oliygohdagi 2-yillik akademik ko'rsatkichlari                                                                                          | 0–20       |
|       | agar nomzodning o'rtacha ballari – 3,0-3,50 bo'lsa                                                                                                                 | 0–5        |
|       | agar nomzodning o'rtacha bali – 3,51-4,49 bo'lsa                                                                                                                   | 0–10       |
|       | agar nomzodning o'rtacha bali – 4,50 va undan yuqori bo'lsa                                                                                                        | 0–20       |
| 3     | Ta'lim yo'nalishidagi ilmiy faoliyati                                                                                                                              | 0–5        |
|       | mashhur va xalqaro nashrlardagi maqolalar soni: <ul style="list-style-type: none"> <li>• beshta va undan ortiq bo'lsa;</li> <li>• beshtadan kam bo'lsa.</li> </ul> | 0–3<br>0–2 |
|       | ilmiy tadqiqot va nashr ishlari mavzularining dolzarbligi                                                                                                          | 0–2        |
| 4     | Motivatsion xat mazmuni                                                                                                                                            | 0–20       |
| 5     | Xorijiy tillarni bilish darajasi*                                                                                                                                  | 0–15       |
|       | agar nomzod B1 darajadagi xorijiy til sertifikatiga ega bo'lsa                                                                                                     | 0–5        |
|       | agar nomzod B2 darajadagi xorijiy til sertifikatiga ega bo'lsa                                                                                                     | 0–10       |
|       | agar nomzod C1 darajadagi xorijiy til sertifikatiga ega bo'lsa                                                                                                     | 0–15       |
| 6     | Xalqaro IT-sertifikat mavjudligi**                                                                                                                                 | 0–15       |
|       | agar nomzod boshlang'ich darajadagi sertifikatga ega bo'lsa                                                                                                        | 0–5        |
|       | agar nomzod o'rta darajadagi sertifikatga ega bo'lsa                                                                                                               | 0–10       |
|       | agar nomzod professional darajadagi sertifikatga ega bo'lsa                                                                                                        | 0–15       |
| 7     | IQ test (onlayn test)                                                                                                                                              | 0–20       |
| Jami: |                                                                                                                                                                    | 100        |

**Izoh.** Baholash mezonlariga tegishli vazirliklar va idoralar bilan kelishgan holda o'zgartirish va qo'shimchalar kiritilishi mumkin.

\*) Mazkur mezon tegishli normativ huquqiy hujjat bilan tasdiqlangan xorijiy tillarni bilish darajasini baholovchi xalqaro tan olingan sertifikatlar ro'yxatiga muvofiq baholanadi.

\*\*) Mazkur mezon Raqamli texnologiyalar vazirligi tasdiqlangan va "it-istedod.uz" portalida e'lon qilingan xalqaro IT-sertifikatlar ro'yxatiga muvofiq baholanadi.



## DIQQAT

Tanlov bosqichlarida uyali telefon, boshqa aloqa va telekommunikatsiya vositalari, lug'at, kitob va shpargalkalar olib kirilishi hamda foydalanilishi qat'iyan taqiqlanadi.

Tanlovning har bir bosqichidan muvaffaqiyatli o'tgan nomzodlar haqidagi ma'lumot bosqich yakunlangandan so'ng besh ish kuni ichida tashkilotchilarning Internet axborot tarmog'idagi rasmiy veb-saytlari va ijtimoiy tarmoqlardagi rasmiy sahifalarida e'lon qilinadi.

Tanlovning uchinchi bosqichi g'oliblari to'g'risida ma'lumot tashkilotchilar tomonidan o'n ish kuni ichida e'lon qilinadi.



@datasciencekonkurs



datasciencekonkurs@gmail.com



+99897 177-20-22



dscience.uz

